

O‘QUVCHI YOSHLARNING VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKILLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IJTIMOY HAYOTGA TATBIQ QILISH

Nazarov Ismoiljon Baxtiyor o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Magistranti

+99899 440 42 82

ANNOTASIYA

Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining jamiyat hayotida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammo va yechimlari ilmiy-nazariy tadqiq etilgan. Shuningdek, ijtimoiy hayotdagi asosiy sohalar yordamida fuqarolarimizning intellektual salohiyatni tarbiyalashning asosiy ustuvor vazifalari izchil tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: postindustrial jamiyat, intellektual jamiyat, salohiyat, zamonaviy ta’lim, insonparvarlik, gumanizim, tarbiya tizimi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлено научно-теоретическое исследование проблем и решений, которые технологии искусственного интеллекта могут поставить перед обществом. Также в ней систематически анализируются основные приоритетные задачи воспитания интеллектуального потенциала наших граждан в основных сферах общественной жизни.

Ключевые слова: постиндустриальное общество, интеллектуальное общество, потенциал, современное образование, гуманизм, гуманистическая система образования.

ANNOTATION

This article provides a scientific and theoretical study of the problems and solutions that artificial intelligence technologies may pose to society. It also systematically analyzes the main priority tasks of educating the intellectual potential of our citizens through the main areas of social life.

Keywords: post-industrial society, intellectual society, potential, modern education, humanism, humanism, educational system.

Yangi O‘zbekiston strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samarali tashkil etilishiga bog‘liq. Chunki strategiyada belgilangan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarga erishish uchun avvalo fuqarolarning dunyoqarashi, qadriyatlar va ma’naviy saviyasini yuksaltirish talab etiladi. Ma’naviy-ma’rifiy soha orqali aholining, ayniqsa yoshlarning

milliy g'oya va mafkura bilan qurollanishi, vatanparvarlik, fidoyilik kabi fazilatlarining shakllanishi ta'minlanadi. Shu ma'noda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar strategiyaning asosiy tayanch nuqtalaridan biri hisoblanadi.

Hozirga vaqatda O'zbekistonda sun'iy idrokning milliy modeli ishlab chiqilmoqda. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risi"¹dagi prezident qarorida milliy model va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasida ko'zda tutilgan. Mamlakatimiz sun'iy intellekt yo'nalishidagi dastlabki bosqichli qadamlarni 2021-yilda qo'ya boshlagan edi. Bu bosqichlarning faollashuvi esa 2024-yilga to'g'ri kelmoqda. 2024-yil 14-oktabrda O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida prezident qarori qabul qilingan edi. Bu hujjatni amalga oshirish doirasidagi birinchi bosqichlardan biri sifatida faoliyati raqamlashtirib bo'lingan vazirlik va idoralarga Raqamli texnologiyalar vazirligiga ma'lumotlar reyestrini taqdim etish va bu bo'yicha hisobotlar topshirish vazifasi yuklatilgan. Ushbu strategiyaning birinchi bosqichi sifatida milliy o'zbek tilidagi ma'lumotlarni to'plashni nazarda tutuvchi bazani shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bularga biz adabiyotlar, tahliliy matnlar, rasmlar, shuningdek, kasalliklarni erta tashxislash loyihalarida keyinchalik foydalanish uchun anonimlashtirilgan tibbiy ma'lumotlar (masalan, PET/KT va MRT)ni kiritishimiz mumkin. Ushbu ma'lumotlar milliy bazada raw eltron formatida saqlanadi va mutaxassislar tomonidan keyingi toifalarga bo'lib ajratiladi. Shundan so'ng ular asosida sun'iy intellektga oid o'rganishga mos ma'lumotlar to'plamlari shakllantiriladi.

Ijtimoiy hayotga va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalari va vositalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish uchun, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish maqsaddi va vazifalarni ijtimoiy hayotda ta'minlash uchun "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi. Ijtimoiy hayotga sun'iy intellekt texnologiyalari va vositalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlarga quydagilarni sanab o'tishimiz mumkin: sun'iy intellekt asosida yaratilayotgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish; yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish; sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish; xalqaro hisoblangan Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekiston Respublikasining birinchi 50

¹ "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risi"dagi PQ-358-son. 14.10.2024.

ta o‘rindagi davlatlar qatoriga kirishi²ga erishish kabi maqsadlarni amalga oshirishimiz lozim hisoblandi.

Yuqorida ishlar va birqancha ishlar natijasida respublikamizning ijtimoiy hayotida sun‘iy intellekt texnologiyalari va vositalarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalariga quydagilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi. Ya‘ni sun‘iy intellekt texnologiyalari va vositalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohadaga zamonaviy standartlarni shakllantirish yoki takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash choralarini ko‘rib chiqib amalga oshirish lozim. Ma‘lumotlarni qayta ishlash hamda sun‘iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo‘nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish, sun‘iy intellekt texnologiyalari va vositalaridan foydalanish bo‘yicha aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish kabi maqsad va vazifalarni ko‘rib chiqish lozim.

Sun‘iy intellekt texnologiyalari va vositalarini rivojlantirishda 2024 - 2026-yillarda davlatimiz tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan bir qancha ishlar mavjud bo‘lib, bunga davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan “katta ma‘lumotlar” bazasini kiritishimiz mumkin. Bunda esa albatta ijtimoiy hayotning quydagi sohalarini olib qarashimiz mumkin bo‘ladi. Misol qilib bank-moliya sohasida — firibgarliklarning oldini olish, foydalanuvchilarning to‘lov qobiliyatini baholash, bozor tendensiyalarini prognoz qilish; soliq va bojxona sohalarida — yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, shubhali bojxona operatsiyalarini prognozlash va xavflarni boshqarish; sog‘liqni saqlash sohasida — kasalliklarni tashxislash, davolash usullarini belgilash, tibbiy tasvirlarni tahlil qilish va bemorga oid ma‘lumotlarni boshqarish; qishloq xo‘jaligi sohasida — hosildorlikni prognoz qilish, qishloq xo‘jaligi resurslarini boshqarish, ekinlar, parranda, baliq va chorva mollarini yetishtirish jarayonlarini monitoring qilish; energetika sohasida — energiya resurslarini boshqarish, energiya ishlab chiqarish va taqsimlashni optimallashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish va ularga bo‘lgan talabni prognozlash kabi ijtimoiy holatlarni olib qarashimiz mumkin.

Shu bilan birga, “Katta ma‘lumotlar” bazasini yaratish uchun vazirlik va barcha davlat idoralar respublikaning shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda (ma‘lumotlarni shaxssi yashirgan holatda) elektron ma‘lumot zahirasi tashkil qilinishi nazarda tutilgan. Ushbu maqsadli ishni amalga oshirish va hayotga tatbiq qilishda davlatimiz tomonidan Raqamli texnologiyalar

² “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risi”dagi PQ-358-son. 14.10.2024.

vazirligi tuzilmasidagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi³” davlat ilmiy markazi tarmog‘ida “Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi” davlat tashkiliy muassasasi ta’ sis etilishi belgilab olingan.

Mazkur tuzilmaviy subyekt tomonidan, jumhuriyatimizda qonunlarni bajaruvchi ijroiyya hokimiyat organlari, mahalliy davlat tuzulmaviy hokimiyati organlari, davlatimiz hamkorligidagi korxonalar sun’iy intellektni rivojlantirish choralarda kerak bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish uchun aborot tizimlari, ma’lumotlar zahiralari ulanish va to‘siqlarsiz foydalanish imkoniyatini vujudga keltirilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlardan foydalanish uchun axborot tizimlari, ma’lumotlar zahiralari ulanish va to‘siqsiz foydalanish imkoniyatini vujudga keltirilishi kerak. Axborot tizimlari va dasturiy zahiralarning sun’iy idrok vositalari yoki texnologiyalari asosida yaratilganligi va bunday innovatsiyalarni qo‘llanganligi ushbu muassasa tomonidan ekspertizadan o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, AI jamiyat hayotida milliy o‘zlikka ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. U to‘g‘ri yo‘naltirilsa, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Unday bo‘lmasa, milliy o‘zlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin bo‘ladi. Shu sababli ham sun’iy idrok vositalari va texnologiyalaridan foydalanishda o‘quvchi yoshlarga oqilona usullarni muhimligini va ahamiyatini tushuntira olishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 243-bet.
2. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Print Line Group” T. 2023. 26-bet.
3. S., Brazevich, D.S., Kosgeleva, D.N. “Cognitive mobility in the structure of intellectual potential of personality.”
4. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” “Print Line Group” T. 2023. 27-bet.
5. “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 26.04.2022. PQ-221-son.
6. Sh.M.Mirziyoyev. “Besh million su’niy intellekt yetakchilari” (Five Million Uzbek AI Promoters) xalqaro forumidagi nutqidan. 28.11.2025.

³ “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 26.04.2022. PQ-221-son.